

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

ECONOMIC
Business | Finance | Investment

UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'aforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|---|--|
| 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi | 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish |
| 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari | 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar |
| 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash | 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari |
| 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari | 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik |
| 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti | 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti |
| 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi | 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi |
| 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari | 08.00.02 – Makroiqtisodiyot |
| 05.01.07 – Matematik modellashtirish | 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti |
| 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt | 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti |
| 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik | 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti |
| 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari | 08.00.06 – Ekonometrika va statistika |
| 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti | 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit |
| 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash | 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit |
| 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi | 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti |
| 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari | 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti |
| 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari | 08.00.11 – Marketing |
| 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi | 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot |
| | 08.00.13 – Menejment |
| | 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari |
| | 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti |
| | 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya |
| | 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati |

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memorning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Oliy ta'lim massasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	89
Karlibaeva Gulshat	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxonada faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	



O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	116
Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Xalqaro moliya-kredit instutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
Qosimov Bobur Sobirovich	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni	131
Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi	136
Mahmudov Nurali Komilovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri	140
Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



O'ZBEKISTON SHAROITIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MAKROIQTISODIY INDIKATORLARGA TA'SIRI

Sanakulova Iroda

Samarqand davlat uiversiteti
Kattaqo'rg'on filiali iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar:

Kuldoshev Lazizjon Sharifovich

Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi
kuldoshevlazizjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga – YAIM o'sishi, ishsizlik darajasi, soliq tushumlari, eksport salohiyati va investitsiya muhiti kabi ko'rsatkichlarga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda statistik tahlillar, xalqaro tajriba hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar asosida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi ochib beriladi. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, transformatsiya, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, YAIM, ishsizlik, soliq tushumlari, innovatsiya, AKT, O'zbekiston.

Abstract: This article analyzes the impact of digital transformation on key macroeconomic indicators in Uzbekistan, including GDP growth, unemployment rate, tax revenues, export potential, and the investment climate. Based on statistical analysis, international experience, and national reforms, the study identifies the contribution of the digital economy to economic stability. The paper also outlines current challenges and suggests practical solutions.

Keywords: Digital economy, transformation, macroeconomic indicators, GDP, unemployment, tax revenues, innovation, ICT, Uzbekistan.

Аннотация: В статье рассматривается влияние цифровой трансформации на макроэкономические показатели в условиях Узбекистана, такие как рост ВВП, уровень безработицы, налоговые поступления, экспортный потенциал и инвестиционный климат. На основе статистического анализа, международного опыта и национальных реформ раскрывается вклад цифровой экономики в обеспечение экономической устойчивости. Также представлены проблемы и предложения по их решению.

Ключевые слова: цифровая экономика, трансформация, макроэкономические показатели, ВВП, безработица, налоговые поступления, инновации, ИКТ, Узбекистан.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo iqtisodiyoti keskin raqamli transformatsiya bosqichiga kirib bordi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiyotning barcha sohalarida yangi raqamli yechimlar paydo bo'lib, ular mehnat unumdorligi, iqtisodiy samaradorlik va xalqaro raqobatbardoshlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, elektron tijorat, elektron hukumat, raqamli bank tizimlari va sanoatni raqamlashtirish tendensiyalari global makroiqtisodiy indikatorlarga bevosita ta'sir qilmoqda.

O'zbekiston ham bu global jarayondan chetda qolmay, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategik dasturi doirasida iqtisodiyotni raqamlashtirishni jadallashtirmoqda. 2020-yildan buyon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi bo'yicha qabul qilingan islohotlar natijasida, 2023-yilga kelib AKT xizmatlari eksporti 342 million AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa 2020-yilga nisbatan 3 barobar ko'pdir [Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi]. Shu bilan birga, "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar soni 600 tadan oshdi. Bu holat davlat xizmatlari samaradorligini oshirish va korrupsiyani kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar kontekstida qaralganda, 2018–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YAIM) o'rtacha 5,5 foiz o'sish sur'atini saqlab qoldi. Jahon bankining tahlillariga ko'ra, bu o'sishning muhim qismini AKT sohasi va raqamli xizmatlar bilan bog'liq tarmoqlar tashkil qilmoqda. Raqamli



transformatsiya ishsizlik darajasining pasayishiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar va IT sohasiga oid kasblar uchun yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlar – xususan, YAIM, ishsizlik darajasi, soliq tushumlari, eksport salohiyati va investitsiya muhitiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilinadi. Ilmiy asoslangan statistik tahlillar, xalqaro tajriba va mahalliy islohotlar tajribasiga tayangan holda, maqolada raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy barqarorlikka qo'shayotgan hissasi aniqlanadi va amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri masalasi so'nggi yillarda jahon miqyosida iqtisodiy va siyosiy tadqiqotchilarning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish, ma'lumot oqimini tezlashtirish va yangi raqamli xizmatlarni yaratish orqali yalpi ichki mahsulot (YAIM), bandlik, iste'mol va investitsiyalarga ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli transformatsiya tushunchasini turli olimlar turlicha talqin qilgan. McKinsey kompaniyasining tadqiqotlariga ko'ra, raqamli transformatsiya — bu tashkilotning doimiy ravishda yaxshilanish va o'zgarish usullarini qayta shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli harakat hisoblanadi. Bu ta'rif raqamli transformatsiyaning bir martalik jarayon emas, balki doimiy rivojlanish ekanini ta'kidlaydi. Rus olimlarining tadqiqotlarida esa raqamli transformatsiya biznes modellarini tubdan o'zgartirish jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. Ularning fikricha, raqamli transformatsiya kichik biznes uchun yangi va muqarrar rivojlanish bosqichi bo'lib, raqobatbardosh bo'lish hamda yangi imkoniyatlardan foydalanish uchun zarur.

Ravshanov A.K. "Raqamli iqtisodiyotning shakllanishida makroiqtisodiy omillarning roli" nomli tadqiqotida muallif raqamli infratuzilma, mehnat bozoridagi o'zgarishlar va YAIM o'sishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ta'kidlaydi. Shuningdek, elektron hukumat va soliq tushumlari o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Karimov Sh.K. "Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari" asarida raqamli transformatsiya faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiy siyosatning yangi bosqichi sifatida baholanadi. Muallif transformatsiyaning samarali amalga oshirilishi uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik muhimligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan raqamli transformatsiyaning asosiy makroiqtisodiy indikatorlarga ta'sirini baholash maqsad qilingan. Tadqiqotda miqdoriy va sifatli tahlil uslublaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, faoliyat shaffofligini ta'minlash va mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Tarixda uchta sanoat inqilobi bo'lib o'tgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda to'rtinchi sanoat inqilobi deb hisoblanmoqda. Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy ravnaqqa erishish va aholiga qulayliklar yaratishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolada sanoat kompaniyalarini raqamlashtirish nuqtayi nazaridan ushbu sohalar o'rtasidagi aloqalar, sanoatni rivojlantirishda raqamli transformatsiyaning o'rne, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

So'nggi vaqtlarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning iqtisodiy rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynamoqda.

Raqamli iqtisodiyot — bu xo'jalik faoliyatini yuritish shakli bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamli shakldagi ma'lumotlar hisoblanadi. Bu faoliyat katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijalarini tahlil qilish orqali ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash hamda mahsulotlarni yetkazib berish sohalarida ilgari mavjud bo'lgan tizimlardan samaraliroq yechimlarni joriy qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish orqali korxonalar operatsion xarajatlarini kamaytirmoqda, xizmat sifati va tezkorligi oshmoqda [5].

Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot — bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarini raqamli kompyuter texnologiyalari rivojlanishi bilan bog'liq faoliyatdir. So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarning



ahamiyati ortib bormoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Texnologiyalarning inson faoliyatining barcha sohalariga kirib borishi bilan an'anaviy yondashuvlar va ish uslublari o'zgarimoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo'lishi va keng tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar kuchli ta'sir ko'rsatdiki, yangi bir hodisa – raqamli iqtisodiyot shakllandi. AKT ta'sirida odamlarning turmush tarzi o'zgarimoqda, foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalar yangicha shakllanmoqda – turli geografik mintaqalar, faoliyat sohaları va ijtimoiy guruhlar o'rtasida bevosita aloqa o'rnatish imkoniyati vujudga keldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan axborot aloqalarining jadal o'sishidir.

Raqamli texnologiyalarning ta'siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham sezilmoqda. Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarish kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o'sib borayotgan qismiga aylangan. Yangi texnologiyalar, ayniqsa, yaxshi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ayrim jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu, asosan, ishlatilayotgan mexanizmlarni – aloqa vositalari yoki sanoat mashinalarini – raqamli tizimlarga almashtirish va ularni zamonaviylashtirish orqali amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning o'sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator bozorlarning kengayishi bilan izohlanadi. Texnologiyalar rivojining hozirgi bosqichi va bozorlarning mavjud holatida raqamli iqtisodiyotga maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida yondashish lozim. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif etmoqda va boshqaruv mexanizmlarini o'zgaruvchan iqtisodiy voqelikni aks ettirishga mos tarzda yangilash zaruriyatini ko'rsatmoqda.

Dunyo mamlakatlarida bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalarining kundalik hayotga joriy qilinishi natijasida oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirgi kunda uydan chiqmasdan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor taomlarga buyurtma berish, ularni bevosita uyingizgacha yetkazib olish imkoniyati mavjud.

Yalpi ichki mahsulotda raqamli iqtisodiyot ulushi bo'yicha jahon yetakchi mamlakatlaridan biri Buyuk Britaniyadir (12,4 %). 2016-yilda e'lon qilingan Xalqaro ma'lumotlar korporatsiyasi tahlilchilarining hisobotiga ko'ra, raqamli transformatsiya texnologiyalari bo'yicha global xarajatlar har yili o'rtacha 16,8 foizga oshib, 2019-yilga kelib 2,1 trillion AQSh dollarini tashkil etgan.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Raqamli sanoatlashtirish bugungi kunda davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylangan. 2019-yilda sanoatni raqamlashtirish jahon raqamli iqtisodiyotining 84,3 foizini, jahon yalpi ichki mahsulotining esa 35 foizini tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlarda sanoatni raqamlashtirish raqamli iqtisodiyotning 86,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 78,6 foizni tashkil etgan.

Rivojlangan davlatlar ichida aloqa va dasturiy ta'minot sohasida yetakchi bo'lgan mamlakatlar — AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Rossiya va Yaponiya — elektron tijorat va ilg'or ishlab chiqarish faoliyatlarini birinchilar qatorida boshlagan davlatlar sirasiga kiradi.

Raqamli industrializatsiya esa tarmoqlar bo'yicha taqsimlanadi va birlamchi, ikkilamchi hamda uchlamchi toifalarga ajratiladi.

Faoliyat turiga ko'ra biz ularni qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga ajratishimiz mumkin. Dunyoda xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya boshqa ikki sektorga qaraganda tezroq sur'atlarda ro'y bermoqda. Bu, asosan, har bir sektorning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiyani amalga oshirish ishlab chiqarishga nisbatan osonroq, chunki bu sohada doimiy xarajatlar kamroq, tranzaksiya xarajatlari esa yuqori. Qishloq xo'jaligida esa raqamli transformatsiyani joriy etishda to'siqlar ko'proq uchraydi, chunki bu sohadagi ishlab chiqarish jarayonlari katta darajada atrof-muhit va tabiiy omillarga bog'liq.

Zamonaviy kompyuterlar va texnik vositalar orqali boshqaruvdagi axborot jarayonlarini tubdan o'zgartirish mumkin. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining holatini real vaqt rejimida aks ettirish, uzatilayotgan va qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tezkorligi va ishonchligini ta'minlash, ma'lumotlarni qayd etish, xabarlarini izlash va guruhlashni soddalashtirish, axborotlarni saqlashni mukammallashtirish, hisobotlar tayyorlashda mehnat xarajatlarini kamaytirish, xo'jalik bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va axborot oqimi sifatini oshirish — ularning barchasi korxonalarda iqtisodiy xavfsizlik tizimining muhim elementlaridan hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shu sababli davlat aynan shu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo'llab-quvvatlagan holda qulay ekotizimni shakllantirishi zarur. Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlash borasida raqamli ta'limning zamonaviy metodlarini tatbiq etishi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o'zlashtirishga ko'maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvi natijasida yuzaga keladigan xavflarni kamaytirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatidan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi.

O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga joriy etish yalpi ichki mahsulotning o'sishiga, ish o'rinlarining ko'payishiga, soliq tushumlarining ortishiga hamda iqtisodiy faoliyatda shaffoflik darajasining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, AKT xizmatlari eksportining 2020–2023-yillarda 3 barobar o'sishi, elektron hukumat va raqamli xizmatlar sonining ortishi davlat boshqaruvi samaradorligining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Statistik ma'lumotlar va xalqaro tajriba asosida aytish mumkinki, raqamli transformatsiya iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Biroq, O'zbekistonda bu jarayon hali to'liq rivojlanmagan. Telekommunikatsiya infratuzilmasining zaifligi, malakali kadrlar tanqisligi va normativ-huquqiy bazaning yetarli emasligi kabi muammolar mavjud. Shu bois, davlat tomonidan raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlovchi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, ta'lim tizimini zamonaviy raqamli kasblarga moslashtirish, hamda innovatsion loyihalarni rag'batlantirish zarur.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya — bu faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiyotni tubdan qayta tashkil etuvchi tizimli islohotdir. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ham aynan shu jarayonning qamrov darajasiga va sifatiga bevosita bog'liq. Kelgusida raqamli iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish orqali mamlakat global iqtisodiy makonda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori *"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida* PQ–6079-son, 2020-yil 5-oktabr.
2. Ravshanov A.K. (2022). Raqamli iqtisodiyotning shakllanishida makroiqtisodiy omillarning roli. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti.
3. Karimov Sh.K. (2021). Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *AKT xizmatlari eksporti bo'yicha statistik axborot byulleteni*. www.mf.uz
5. Kuldoshev.L Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali. 2025 yil
6. Qurbonov S. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar monitoringi va prognozlash metodlari. – Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
7. Normatov B.T., & Mamajonov A.K. (2021). O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi: holati, muammolari va istiqbollari. – "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy-amaliy jurnali, №4, 45–52-betlar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100